



TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ORQALI O'QITUVCHINING PEDAGOGIK SALOHİYATINI OSHIRISH

Isaqov Zokirjon Soliyevich

Qo'qon DU "Boshlang'ich ta'lim" kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi. isaqovzokirjon1@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish orqali o'qituvchilik salohiyatini oshirish masalalari tahlil qilingan, o'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirish, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish hamda o'quv jarayonini modernizatsiya qilishda ilg'or texnologik yondashuvlarning o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim, pedagogik kompetensiya, o'qituvchilik salohiyati, AKT, kreativ yondashuv, interaktiv metodlar.

Аннотация: в статье анализируются вопросы повышения педагогического потенциала за счет эффективного использования инновационных технологий в образовательном процессе, освещается роль передовых технологических подходов в развитии профессионального мастерства педагогов, формировании цифровых компетенций и модернизации образовательного процесса.

Ключевые слова: инновационные технологии, цифровое образование, педагогическая компетенция, педагогический потенциал, ИКТ, креативный подход, интерактивные методы.

Abstract: this article analyzes the potential for enhancing teaching potential through the effective use of innovative technologies in the educational process. It also highlights the role of advanced technological approaches in developing teachers' professional skills, developing digital competencies, and modernizing the educational process.

Keywords: innovative technologies, digital education, teaching competence, teaching potential, ICT, creative approach, interactive methods.

Yangi O'zbekistonda ta'limning rivojlantirishga taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi sifatida yondashilmoqda. Bu borada Sh.M.Mirziyoyev o'zining har bir nutq va ma'ruzalarida xalq ta'limini yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator vazifalarni ko'rsatib beradi. Xususan, u shunday ta'kidlaydi: "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi". Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak" [8;6]. Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat bilim beruvchi, o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantiruvchi, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi shaxs bo'lishni talab etadi. Bugun ta'lim jarayonining samaradorligi o'qituvchining innovatsion

texnologiyalarni o‘zlashtirish darajasi bilan bevosita bog‘liq, shu sababli o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish dolzarb masaladir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi topshiriqlar ta‘lim tizimida raqamli transformatsiyani jadallashtirishni ko‘zda tutadi. Bu esa o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash, ijodkorlik va raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi[1;10]. Innovatsion texnologiyalarning ta‘limdagi ahamiyati quyidagi jihatlarida namoyon bo‘ladi:

Ta‘lim sifatini oshiradi – bilimlarni yanada samarali o‘zlashtirish imkonini beradi.

Shaxsiy rivojlanishga e‘tibor qaratadi – o‘quvchining individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarini interaktiv qiladi – hamkorlik asosida ishlashni o‘rgatadi.

Hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi – o‘quvchilar muammoni hal qilish, ijodiy yondashuv va jamoaviy ishlashni o‘rganadilar.

Texnologik savodxonlikni oshiradi – zamonaviy jamiyatda muhim bo‘lgan raqamli ko‘nikmalarni shakllantiradi [9;129].

O‘qituvchilik salohiyati – bu pedagogning kasbiy mahorati, shaxsiy fazilatlari, kommunikativ madaniyati va innovatsion yondashuvlarni qo‘llay olish qobiliyatlarining majmuasi[4;89]. Ta‘limdagi innovatsiyalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan bir qatorda, didaktika va metodikaning yangi shakllarini o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy o‘qituvchi quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur:

Axborot-kommunikatsion kompetensiya – raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar va elektron resurslardan foydalanish malakasi. AKTning ta‘lim jarayonidagi o‘rni juda katta. Kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, elektron darsliklar va ta‘lim platformalari (Google Classroom, Moodle, Edmodo) orqali bilim olish osonlashdi. O‘quvchilar mustaqil ravishda kerakli ma‘lumotlarni izlab topish va ulardan foydalanishni o‘rganadi.

Didaktik kompetensiya – darslarni innovatsion uslublar asosida tashkil etish. Pedagogika fanida “innovatsiya” tushunchasi yangicha g‘oya, ilg‘or metod va texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etishni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar – bu nafaqat texnik vositalar, balki pedagogik uslublar, psixologik yondashuvlar va yangi metodik tizimlarni ham o‘z ichiga oladi[2;65].

Ijodiy kompetensiya – yangi g‘oya va loyihalarni ishlab chiqish, muammolarga noodatiy yechim topish. Kreativlik – shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo‘l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi. Xorij olimlari Hennessey va Amabaillarning fikricha, kreativ tushunchalar va yondashuvlar dunyoning turli mintaqalarida insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga, jumladan, ular tabiiy, falsafa, san‘at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi [10;570].

Refleksiv kompetensiya – o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga qodirlik. Ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalar

muhim o‘rin tutadi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali ta‘lim jarayoni nafaqat samarali, balki qiziqarli ham bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan motivatsiyasini oshirib, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi [3;30].

Innovatsion texnologiyalar – bu o‘qitish jarayoniga yangi yondashuvlar, metodlar, vositalar va tizimlarni tatbiq etish orqali ta‘lim sifatini oshirishni maqsad qiluvchi yangiliklardir. Ular quyidagi turlarga ajratiladi:

Axborot texnologiyalari (elektron doska, onlayn platformalar, raqamli darsliklar). AKTning ta‘lim jarayonidagi o‘rni juda katta. Kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, elektron darsliklar va ta‘lim platformalari (Google Classroom, Moodle, Edmodo) orqali bilim olish osonlashdi. O‘quvchilar mustaqil ravishda kerakli ma‘lumotlarni izlab topish va ulardan foydalanishni o‘rganadi[6;101].

Interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, sinkveyn, Venn diagrammasi, “Fishbone” usuli va b.). Interfaol so‘zi – talabalarni faollikka chaqirish-tashqidan ta‘sir ko‘rsatish degan ma‘noni bildiradi [7;55].

Masofaviy ta‘lim texnologiyalari (Zoom, Google Classroom, Moodle, Edmodo). Masofaviy ta‘lim pandemiya davrida keng tarqaldi va bugungi kunda ham dolzarbdir. U geografik cheklolarni yengib, ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Gibrid ta‘lim esa an‘anaviy va onlayn darslarni uyg‘unlashtirib, qulay sharoit yaratadi [6; 76].

Sun‘iy intellekt asosidagi vositalar. Bugungi kunda dolzarb mavzuga aylanib ulgurgan Sun‘iy intellekt (SI) ta‘lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu texnologiyaning ta‘limda qo‘llanilishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar ta‘lim jarayonini yanada samarali, shaxsiylashtirilgan va o‘zaro faoliyatga asoslangan qiladi. Sun‘iy intellekt ta‘limda bir qator usullarni taklif etadi, jumladan, o‘quvchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga mos ravishda ta‘limni moslashtirish, ma‘lumotlarni tahlil qilish va ta‘lim jarayonini yanada samarali boshqarish. Sun‘iy intellektning ta‘lim jarayonidagi roli avvalo o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirish bilan bog‘liqdir. Masalan, adaptiv o‘quv tizimlari sun‘iy intellekt yordamida o‘quvchilarning ko‘nikmalarini va bilish darajasini baholaydigan dasturlarni ishlab chiqadi. Bundan tashqari, sun‘iy intellekt orqali o‘quv jarayonini avtomatlashtirish mumkin. Masalan, virtual assistentlar va chat-botlar orqali o‘quvchilar savollariga tezkor javoblar olishlari mumkin. Bu esa o‘qituvchilarning ish yukini kamaytiradi va ularga o‘z faoliyatlariga ko‘proq e‘tibor berish imkonini beradi. Sun‘iy intellektning ushbu qo‘shimcha imkoniyatlari ta‘lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. Ushbu vositalar o‘qituvchiga darslarni qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi. O‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi ortadi[2; 457].

Xulosa. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni muntazam qo‘llaydigan o‘qituvchilarning dars samaradorligi 25–30 foizga ortadi. O‘quvchilarning fanlarga qiziqishi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari kuchayadi. Misol uchun, elektron doska yordamida dars o‘tilganda o‘quvchilar vizual ma‘lumotlarni 60% gacha eslab qolishadi (an‘anaviy darsda bu ko‘rsatkich 30–35% atrofida).

Ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchilik salohiyatini oshirishning eng samarali yo‘llaridan biridir. U nafaqat o‘qituvchining kasbiy mahoratini, balki o‘quvchilarning intellektual va ijodiy faoliyatini ham

rivojlantiradi. Shu bois, har bir o‘qituvchi zamonaviy texnologiyalarni egallash, o‘z darslarini raqamli vositalar asosida tashkil etish va o‘z ustida muntazam ishlashga intilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2020.
2. Karimova S.M. Pedagogik innovatsiyalar va ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU, 2021. – 128 b.
3. Rahimov B.H. Zamonaviy ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Samarqand: SamDU, 2022. – 156 b.
4. To‘xtayeva D. Pedagogik mahorat va o‘qituvchilik salohiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 224 b.
5. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris, 2018. – 128 p
6. Begmatov E. Zamonaviy ta’limda raqamli madaniyat. – Toshkent, 2023.
7. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: 2003.–174 b.
8. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi (Nyu-York shahri, 2017-yil 19-sentabr). (“Xalq so‘zi”, 2017-yil 20-sentabr, №189(6883).
9. Xodjayeva N.M. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va ularning qo‘llanilishi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020. – 312 6.
10. Hennessey, B. and T. Amabile (2010), “Creativity”, Annual Review of Psychology, Vol. 61, pp. 569-598.